

TILSHUNOSLIKDAGI ZAMONAVIY YO'NALISHLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR



ONLAYN

XALQARO ILMIY-AMALIY

KONFERENSIYA

Andijon - 2020

<http://conference.adu.uz>

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

“TILSHUNOSLIKDAGI ZAMONAVIY YO‘NALISHLAR:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari

2020-yil, 28-yanvar

Andijon

uslubshunoslik – stilistika bilan ham bevosita bog'liq bo'ladi. Lekin matnda til birliklarining qo'llanilishini tadqiq etuvchi bu ikki soha o'z maqsadlariga ko'ra tubdan farqlanadi.

Til faoliyati – bu kommunikativ akt ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari, ijtimoiy mavqei, kommunikatsiya maqsadi, muhokama predmetiga munosabati hamda muloqot vaziyatidan kelib chiqib, til vositalarini tanlash hamda kombinatsiya qilishdir. Til vositalarining tanlanishi – mantiqiy, psixologik, ba'zida estetik omillar bilan belgilanadi, ba'zan pragmatik omil ham mavjud bo'ladi. Demak, uslubiyat va nutqning antroposentrik tahlil qilish masalalari bir-biriga juda yaqin turadi. Lekin ular til birliklarini qay jihatdan o'rganishga ko'ra farq qiladi: uslubiyat masalalarida til birliklarining qo'llanilishi, tanlanishi so'zlovchining uslubini belgilasa, matnni antroposentrik tahlil qilishda esa shaxs xususiyatlari so'zlovchining nutqi shakllanishining birinchi omili sifatida baholanadi. Ya'ni uslubiyatda tahlil va xulosa jarayoni matndan shaxsga tomon yo'nalsa, antroposentrik tahlillarda esa shaxs va uning xususiyatlari uning nutqida ma'lum shakllarning voqelanishiga asos bo'ladi, deb hisoblanadi.

Adabiyotlar

1.Худойберганова Д. Матн референцияси ва когнитив-стилистик индивидуаллик // ЎТВА. 2011. №3. Б-31.

2.Қурбонова С. Нуткий фаолиятда шахс хусусиятларининг ифодаланиши ва унда нуткий стимулларнинг ўрни - ЎзМУ Хабарлар. 2014. №3. Б-262-264.

3.Қўшматова З., Мадумарова Н. Бадиий асарда шахс концептининг таҳлили // Филологиянинг долзарб масалалари. Илмий-назарий анжуман материаллари. 3-китоб. – Фарғона, 2015. Б-49.

TABIY TARTIB GIPOTEZASINING TURLI TILLAR UCHUN TALQINI

Saidaxmedova O.I., tayanch doktorant, ToshDO'TAU

Annotatsiya. Maqolada tabiiy tartib gipotezasi hamda uning turli tillardagi talqini haqida fikr yuritiladi. Bu gipoteza asosida o'tkazilgan tajribalar hamda ularning natijalari tahlil qilingan. Unga ko'ra, har bir tilda grammatik ko'rsatkichlar o'zlashtirish tartibi mavjud hamda bu tartib tilni ona tili sifatida hamda chet tili sifatida o'qitish sifatida asos vazifani bajaradi.

Kalit so'zlar: Tabiiy tartib gipotezasi, til o'zlashtirish, ifodaning o'rtacha uzunligi, tajriba, tartib

Tabiiy tartib gipotezasi – grammatik shakllar, qoidalar, birliklarni muayyan tartibda o'zlashtirilishidir. Bu gipoteza S.Krashen tomonidan tomonidan taklif qilingan¹. Ona tilini o'zlashtirishda muayyan so'zlar yoki qo'shimchalar boshqalariga qaraganda avvalroq o'zlashtiriladi.

1958-yilda J.Berko ingliz tili ona tilisi bo'lgan bolalarda morfemalar (masalan, ko'plik, egalik, zamon qo'shimchasi) produksiyasi tartibini tajriba asosida o'rgangan². Sinaluvchi bolalar 4-7 yosh bo'lib, tadqiqotchi turlanish/tuslanishning o'zlashishini aniqlash maqsadida tilda mavjud bo'lmagan so'zlardan foydalangan. Masalan, qushga o'xshash noma'lum jismning rasmni bolalarga ko'rsatib, uni “wug” (aslida bu so'z emas, ingliz tilida bunday so'z yo'q) deb atagan hamda bolalarga bir nechta “wug” mavjud rasmni ko'rsatgan hamda ulardan bular nima ekanligini so'ragan. Bolalar tadqiqoqchi kutganidek, “wugs” deb javob berganlar, ya'ni asosga 's qo'shimchasini qo'shganlar. Berko berilgan javoblar tahlilida gender jihatdan juda katta farq yo'q ekanligini kuzatgan.

¹ Berko, Jean. (1958). The child's learning of English morphology. Word, 14, -P.150-177.

² Brown, R. (1973) A first language: The early stages. Cambridge, MA: Harvard University Press.

Qolaversa, u 4 yoshli bolalar 7 yoshli bolalarga nisbatan faolroq ekanligini, ko'plik, hozirgi zamon, o'tgan zamon hamda egalik qo'shimchalarini o'zlashtirishda 4 yoshli bolalardagi natija 7 yoshli bolalar ko'rsatgan natijadan yaxshiroq ekanligini ta'kidlaydi.

1973-yilda R.Broun morfemalar o'zlashtirishi rivojiga bag'ishlangan yirik asarini nashr etdi¹. Tadqiqotda ingliz tili ona tilisi bo'lgan (bu bolalar ingliz tili muhitida katta bo'lgan) 3 ta bolani (bolalardan biri 18 oylik, qolgan ikkitasi 27 oylik) so'zlarni so'z birikmalariga aylantirishni boshlagan vaqtlaridan kuzatgan. Namunalar bolalarning tarbiyachi bilan tasodifiy nutqini lentaga yozib olish hamda shu vaqtning o'zida tarbiyachi tomonidan yozib olinishi bilan to'plangan. To'plangan namunalar tahlil qilingach, R.Broun til o'zlashtirishning 5 ta bosqichini belgiladi. Ular quyidagilar: 1-bosqich, semantika va sintaktik bog'lanish; 2-bosqich, grammatik morfemalar va ma'no modulyatsiyasi; 3-bosqich, sodda gaplar modalligi; 4-bosqich, bir gapni boshqa gap bilan bog'lash; 5-bosqich, sodda gaplarni muvofiqlashtirish. 1-bosqichda bolalar nutqida otlar, fe'llar hamda sifatlar uchraydi. Tadqiqotchi ularni kontentivlar deb atagan, chunki ular aniq obyekt yoki predmet, harakat va sifatni bildiradi. 2-bosqich morfemalarni o'zlashtirish bilan xarakterlanadi. Turlangan yoki tuslangan morfemalar – bular egalik hamda kelishik qo'shimchalari bilan turlangan yoki shaxs-son hamda zamon qo'shimchalari bilan tuslangan so'zlardir. R.Broun bolalarning morfemalarni o'zlashtirishini aniqlashda S.Kazdenning me'zonidan foydalandi². Unga ko'ra, morfema shu qo'shimchani talab qiluvchi javoblar tarkibida 90% to'g'ri ishlatilganida shu morfemani o'zlashtirdi, degan xulosaga kelish mumkin. 2-bosqichda R.Broun ingliz tilida hozirgi zamon qo'shimchasi *-ing*, ko'plik qo'shimchasi *-s*, hamda in predlogi o'zlashishini aniqlagan. 3-bosqichda *on* predlogi hamda *'s* egalik qo'shimchasi; 4-bosqichda to'g'ri va noto'g'ri fe'l shakllarini, 3-shaxs birlikni ko'rsatuvchi fe'l tarkibidagi *-s* qo'shimchasi, *a*, *the* artikllari, hamda *to be* fe'li shakllari; 5-bosqichda *be* ko'makchi fe'lining turli shakllarini o'zlashtirishini qayd etgan. Uzoq kuzatishlardan so'ng R.Broun morfemalardagi lingvistik murakkablikning umumiy miqdori sifatida **ifodaning o'rtacha uzunligi** (mean length of utterance) konseptini rivojlantirdi. Shunga muvofiq, **javobning o'rtacha davomiyligi** termini (mean length of response) har bir so'z birikmasidagi murakkablik miqdorini ifodalash uchun qo'llandi³.

R.Brouning tadqiqotiga asoslanib, J.Villiers va P.Villiers bolalarning bergan javoblarida muayyan qo'shimchaning mavjud yoki mavjud emasligi aniqlashga uringan⁴. Ular ingliz tili ona tilisi bo'lgan 16-40 oylik 21 ta bola bilan tajriba o'tkazishgan. Og'zaki nutq namunalari 2 marta 1-5 soat davomida yozib olingan hamda har bir bolaning ifodaning o'rtacha uzunligi hisoblab chiqilgan hamda javob talab qilinuvchi kontekstda 14 morfema mavjudligi yoki mavjud emasligiga ko'ra aniqlangan. Berilgan morfema uchun besh yoki undan ortiq majburiy kontekstni ta'minlaydigan transkriptlardan foydalanilgan. Tadqiqotning mohiyatidan kelib chiqib, J.Villiers va P.Villiers morfemalar o'zlashtirish jarayonini tekshirishda R.Broudek 3 ta izchil ravishda olingan nutq namunalaridan foydalanishmagan. Morfemalar qatori 2 metodga asosan aniqlangan.

Birinchi usulda morfemalar har bir morfema birinchi marta 90% yoki undan ko'p holatlarda yuzaga kelgan eng kam ifodaning o'rtacha uzunligi qiymatlariga ko'ra tartiblangan. Ikkinchi usulda har bir morfemaga nisbatan foizlar barcha bolalar bo'yicha

¹ Cazden, C. (1968). The acquisition of nouns and verb inflections. *Child Development*, 39, -P.433-448.

² Brown, R. (1973) *A first language: The early stages*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

³ De Villiers, J., & De Villiers, P. (1973). A cross-sectional study of the acquisition of grammatical morphemes in child speech. *Journal of Psycholinguistic Research*, 2, 267-278. <https://doi.org/10.1007/BF01067106>.

⁴ Perroni, M., Gammon, C. (1979). The acquisition of inflections in Portuguese: A study of the development of person markers on verbs. *Journal of child language*, 6, -P.53-67.

yig'ilib, o'rtacha hisob olingan va tartib bo'yicha joylashtirilgan. Keyin har ikki usuldan olingan natijalar qiyoslangan. Unga ko'ra tartib quyidagicha shakllangan: *hozirgi zamon, on predlogi, ko'plik, o'tgan zamon noto'g'ri fe'llari, artikllar, egalik qo'shimchasi, 3-shaxs qo'shimchasi* hamda *to be fe'li*. Ikkinchi usuldan olingan natijaga ko'ra, *egalik qo'shimchasi* eng oxirida o'zlashadigan qo'shimcha sifatida tartiblangan. Tadqiqotchilar til o'zlashtirishning dastlabki bosqichida morfemalar o'zlashtirilishini aniqlovchi mezon yosh xronologiyasi emas, balki ifodaning o'rtacha davomiyligi degan xulosaga kelishgan.

R.Broun hamda J.Villiers va P.Villierslar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida jins, ijtimoiy-iqtisodiy darajasi hamda bolaning ota-onasi oliy ma'lumotli yoki yo'q kabi omillar inobatga olinmagan, lekin olingan natijalar turlangan, tuslangan morfemalar tartibi ikki tadqiqotda ham yuqori darajada o'zaro muvofiqlikni ko'rsatgan.

Portugal tilida fe'ldagi shaxs-son qo'shimchalarining o'zlashish rivoji M.Perroni va S.Gammon tomonidan o'rganilgan¹. Ular 4 ta braziliyalik bolalar bilan uzoq vaqt davomida tadqiqot o'tkazishgan. Tadqiqot bolalarning yoshi 1-8 yoshidan ular 3 yoshga to'lgunga qadar davom ettirilgan. Ma'lumotlar asosan bir qizchanning nutqi asosida olingan, qolgan uch nafar bolaning nutqi esa olingan ma'lumotlarni tasdiqlash uchun xizmat qilgan. Ma'lumotlar qizning ota-onasi bilan muloqot jarayonida yozib olingan 15 ta audio-yozuv asosida olingan. Bundan tashqari, qizning onasi 11 oy davomida qizining nutqini qayd etib borgan. Tadqiqotchilar til o'zlashtirish jarayonining dastlabki bosqichida bolalar fe'lga hozirgi tugallangan zamon qo'shimchasini juda kam qo'shganlarini aniqlashgan. Bolaning nutqidagi deyarli barcha fe'llar ikkinchi, uchinchi shaxs birlikda egaga muvofiq tuslangan. Masalan, bola 1-shaxs *yoqtiraman* fe'li o'rnida ikkinchi va uchinchi shaxsda qo'llaniladigan "gosta" – *yoqtirasiz/yoqtiradi* fe'lidan foydalangan. 2, 1-2-4 yosh orasida ba'zan 1-shaxs-son qo'shimchasidan foydalangan, lekin ko'p o'rinlarda 2-va 3-shaxs-son qo'shimchalarini ishlatish davom ettirilgan. 2-4, 2-5 yosh oralig'ida qiz hozirgi zamoni ifodalashda 1-shaxs-son qo'shimchasini ko'proq ishlatgan, hozirgi tugallangan zamoni ifodalovchi 1-shaxs-son qo'shimchasining barqaror qo'llanilishi esa taxminan 2-7 yosh etib belgilangan. 1-shaxs-son qo'shimchasining ikki zamonda turli yosh davrlarida o'zlashtirilishi turli morfologik qoidalardan foydalanishni taqazo etgan. Shunday qilib, tadqiqotchilar barcha bolalar uchun hozirgi tugallangan zamon fe'llaridagi birinchi shaxs-son qo'shimchasining tugallanishi hozirgi zamon shaxs-son qo'shimchalaridek kabi muntazam emasligini aniqlashgan. Masalan, qiz 2 yosh 5 oyligida fe'lning barchasini 1-shaxs-son qo'shimchasi bilan tuslangan, keyingi oyda esa (2 yosh 6 oylik) 1-shaxs-son bilan tuslangan fe'llar berilgan barcha fe'llarning 33 foizini tashkil etgan. O'tgan tugallanmagan zamonda tuslangan fe'llar bolaning nutqida 2 yosh-u 5 oylikdan keyin izchil bo'lmagan ravishda qo'llangani kuzatilgan. Tuslangan fe'llar ham kattalar savoliga javob bilan cheklangan. O'tgan tugallanmagan zamonda 1-shaxs-sonni bildiruvchi aniq qo'shimcha mavjud emas, bundan tashqari, 1-shaxs-son 2-va 3-birlik shaxs-son qo'shimchalari bilan bir xil. 2 yosh hamda 2 yosh-u 9 oylik davrda ko'pgina fe'llar bola tomonidan buyruq maylida qo'llangan. Qolgan fe'llar hozirgi zamon (26%) hamda hozirgi tugallangan zamonda (12%) tuslangan. Fe'lning infinitiv shakli to'g'ri qo'llangan, ba'zan bolaning nutqida hozirgi hamda kelasi zamon shaxs-son qo'shimchalari ham uchragan. 2, 7-2, 8 yoshli bola nutqida turli zamon shakllari hamda fe'lning tuslanish holatlari kuzatilgan, lekin ularning nutqdagi chastotasi turlicha bo'lgan. Bola nutqida hozirgi oddiy hamda hozirgi tugallangan zamonlar tuslanishi ortgan sayin ular nutqida buyruq-istak maylining qo'llanishi kamaya borgan. Olingan ma'lumotlar portugal tilida

¹ Bates, E., Rankin, J. (1979). Morphological development in Italian: connotation and denotation. *Journal of Child Language*, -P.53-67.

shaxs-son hamda fe'l mayllari zamon ko'rsatkichlaridan avvalroq o'zlashishini tasdiqlaydi. Hozirgi tugallangan zamon bolaning ilk nutqida faqat o'tgan zamonda boshlangan hamda ayni paytda yakunlangan ish-harakatni bildiruvchi fe'llar tarkibidagina uchraydi. Tadqiqotlarga ko'ra, hozirgi tugallangan zamondan foydalanishning cheklanganligi til rivojining universal yo'nalishi bo'lishi mumkin. Bundan farqli tarzda erta o'zlashtirilgan shaxs-sondagi tafovut fe'llarning semantik xususiyatlari bilan chegaralangandek tuyulmaydi, balki ular zamon ko'rsatkichlari bilan bog'langan.

E.Beyt va J.Renkin italyan tilida morfemalarning o'zlashtirilishiga doir tadqiqot olib borishgan¹. Ular italyan tilida o'lchov hamda qiymatni ifodalovchi sifatga qo'shiladigan qo'shimchalarning o'zlashtirilishini uzoq vaqt davomida tajriba yordamida aniqlashgan. Ijtimoiy kelib chiqishi o'rta qatlamga mansub 2 ta bola (Klavdiya va Fransesko) tajriba subyektini etib olingan. Ularning nutqi 1, 3-2, 9 hamda 1, 4-3, 9 yosh oralig'ida o'rganilgan. Har ikki haftada bir marta bolalarning kattalar bilan muloqotidagi nutqi yozib olingan. Uzoq vaqt davom etgan tajribadan so'ng, bolaning nutqida uchragan o'lchov (o'lchovga munosabat bildirilgan sifatlar) hamda bahoni (biror narsaning ijobiy yoki salbiy bahosini bildiruvchi sifatlar) bildiruvchi sifatlar hamda sifat tarkibidagi qo'shimchalar ajratib olingan. Tadqiqotchilar morfemadan unumli foydalanilganligini aniqlash uchun quyidagi mezonlardan foydalanganlar: 1) bola bitta so'z tarkibida birdan ortiq qo'shimcha qo'shsa; 2) bir xil leksemadagi tafovutlar turli xil narsalarga qarama-qarshi holda ishlatilsa. O'lchov hamda bahoni bildiruvchi sifat turlanishining o'zlashtirish jarayoni 2 davrga bo'linadi. Birinchi davr bolalarning 1 yosh-u 8 oylikka yetgunigacha bo'lgan davr bo'lib, bu davrda bolalarda o'lchov hamda baho sifatlarini tushunishi hamda sifatlardan nutqda foydalanishi kuzatilmagan. Ikkinchi davr 1 yoshu 8 oylikdan boshlanib, 2 yosh-u 6 oylikkacha davom etadi hamda, bu davrda bolalar bir nechta morfemani o'zlashtiradilar.

O'zbek tili agglyutinativ tillar guruhiga kiradi hamda tildagi har bir ko'makchi morfema muayyan funksiyani bajarish uchun xizmat qiladi. Shu jihatni inobatga olib, o'zbek tilida morfemalarning o'zlashtirish tartibini aniqlash shu tilning ona tili sifatida ham, chet tili sifatida ham o'qitilishiga muayyan ta'sir o'tkazadi hamda tadqiqotchilar oldiga tajriba o'tkazish masalasini qo'yadi.

Adabiyotlar

1. Bates, E., Rankin, J. (1979). Morphological development in Italian: connotation and denotation. *Journal of Child Language*, -P.53-67.
2. Berko, Jean. (1958). The child's learning of English morphology. *Word*, 14, -P.150-177.
3. Brown, R. (1973) *A first language: The early stages*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. De Villiers, J., & De Villiers, P. (1973). A cross-sectional study of the acquisition of grammatical morphemes in child speech. *Journal of Psycholinguistic Research*, 2, 267-278. <https://doi:10.1007/BF01067106>.
5. Krashen, S. *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. New York: Pergamon Press. 1982. -P.12.

¹ Umarxo'jayev M.E Umumiy tilshunoslik. Andijon. 2010

<i>Лутфуллаева Д., Сапарниязова М.</i>	<i>ЎЗБЕК ТИЛИДА НОМ ЯРАТИШДА АНТРОПОНИМЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ АМАЛИЁТИ</i>	196
<i>Ҳакимов М.</i>	<i>ПЕРФОРМАТИВ АКТ ТУШУНЧАСИ ТЎҒРИСИДА</i>	201
<i>Султонова Ш.М.</i>	<i>ДИНИЙ КОМПОНЕНТЛИ ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРНИНГ АМБИВАЛЕНТЛИГИ ХУСУСИДА</i>	203
<i>Мадраҳимов И.</i>	<i>СЎЗ ТИЛ-НУТҚ ДИХОТОМИЯСИДА</i>	205
<i>Аҳмедова Ҳ.</i>	<i>НУТҚ МАДАНИЯТИ ВА ШАХС МАЪНАВИЯТИ</i>	208
<i>Вауниязов А.Т., Daulet nazarova S.P., Norimbetova Ch.</i>	<i>TIL, LISON, ME'YOR VA NUTQ MUNOSABATI</i>	210
<i>Нуъмонова Д., Дарвишов И.</i>	<i>ЭРГАШГАН ҚЎШМА ГАПЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРУВЧИ БИРЛИКЛАР</i>	212
<i>Do'smatov H., Mahmudova Z.</i>	<i>QO'SHMA SO'ZLAR TARKIBIDAGI LISONIY SHEGARALANGAN AYRIM BIRLIKLAR</i>	216
<i>Isaqova G., Usmonova H.</i>	<i>LEKSIK SATHDA SINTAGMATIK MUNOSABAT IFODASI</i>	217
<i>Abdurahimova F., Ibroximova M.</i>	<i>DARS JARAYONLARIDA IJTIMOIIY TARMOQLARDAN OQILONA FOYDALANISH</i>	220
<i>Jorayeva Z., Halilova Z.</i>	<i>NEMIS TILIDAGI FRASEOLOGIZMLARNING TASNIFIQA</i>	222
<i>Naimova A.M., Ahadova M.</i>	<i>FONOLOGIK MAKTABLAR VA ULARNING NAZARIYALARI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT</i>	224
<i>Nazarova S.</i>	<i>O'QUVCHILARDA TIL KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ANALIZ VA SINTEZ METODIDAN FOYDALANISH</i>	227
<i>Negmatova A., Rasulova G.</i>	<i>TIL TA'LIMIDA IDROK-XARITALARINI QO'LLASH SOHALARI</i>	229
<i>Маҳмудова О., Дарвишов И.</i>	<i>ИБОРАЛАРНИНГ ГРАММАТИК ВАРИАНТЛАШУВИ</i>	231
<i>Qobilov N.</i>	<i>ANTROPOSENTRIK PARADIGMANING AYRIM QIRRALARI</i>	234
<i>Qobilov S.S., Rabbimov I.M.</i>	<i>O'ZBEK TILIDA YOZILGAN YANGILIKLARNI SO'ZLAR BULUTI YORDAMIDA VIZUALLASHTIRISH</i>	236
<i>Qurbonova S., Rahimova L.</i>	<i>АНТРОПОЦЕНТРИК НАЗАРИЯ ХУСУСИДА</i>	240
<i>Saidaxmedova O.I.</i>	<i>TABIIY TARTIB GIPOTEZASINING TURLI TILLAR UCHUN TALQINI</i>	241
<i>Tadjimatova G.Sh.</i>	<i>TILNING KELIB CHIQISHI HAQIDA NAZARIYALAR</i>	245
<i>Tursunova M., Katoldinova M.</i>	<i>ПАНТЕЗ БИРЛИКЛАРНИНГ СИНТАКТИК ХУСУСИЯТЛАРИ ХУСУСИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР</i>	247
<i>Тўхтаҳўжаева Н.Қ.</i>	<i>ИНГЛИЗ ТИЛИДА ФЕЪЛЛАРНИНГ СЕМАНТИК ГУРУҲЛАНИШИ ВА УЛАРНИНГ КОНТЕКСТУАЛ ХУСУСИЯТЛАРИ</i>	249
<i>Ҳамидова М.</i>	<i>OLMOSH SO'ZLARINING MATN TARKIBIDAGI SEMANTIKASI</i>	251
<i>Абуллаева Х.</i>	<i>ЗООНОМИК ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРДА ИНСОН КОНЦЕПТИ</i>	253